

BADIIY ASARDA MAVZU VA G'OYAGA XOS XUSUSIYATLAR

Muxtorova Sitora Dilmurodjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

E-mail: sitoraxonmuxtorova@gmail.com

Otajonov Botirbek Ashuraliyevich

ADCHTI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada badiiy asarning muhim unsurlaridan bo'lgan mavzu va g'oya haqida so'z borgan. Mavzu va g'oyaning farqi, asarda nima uchun kerakligi, ularning turlari haqida ham ma'lumot berilgan.

KALIT SO'ZLAR: badiiy asar, ruhiyat, obyektiv g'oya, subyektiv g'oya, soxta g'oya, uyg'unlik.

АННОТАЦИЯ: В данной статье говорится о теме и идее, которые являются важными элементами художественного произведения. Также дано отличие темы от идеи, зачем она нужна в работе, а также их виды.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: произведение искусства психика, объективная идея, субъективная идея, ложная идея, гармония.

Annotation: This article talks about the theme and idea, which are important elements of the artistic work. the difference between theme and idea, why it is needed in the work, and their types are also given.

Keywords: artistic work, psyche, objective idea, subjective idea, false idea, harmony.

Adabiyotshunoslik nazariyasida mavzu tushunchasi badiiy asarning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida qaraladi. Har qanday badiiy asar muayyan voqeani, hayotiy hodisani yoki ijtimoiy muammoni ifodalashga qaratilgan bo'lib, mavzu asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini belgilab beruvchi asosiy hodisa yoki hayotiy voqelikning san'atkorona

talqinini tashkil etadi. Yozuvchi ijodining boshlang'ich nuqtasi aynan mavzudan kelib chiqadi, chunki u asarda qaysi voqeani yoritishi, qanday muammolarni ko'rsatishi va qaysi insoniy qadriyatlarni ochib berishini mavzu aniqlab beradi.

Adabiyotshunoslikda mavzuga turlicha ta'riflar berilgan. V.G. Belinskiy mavzuni adibning hayotiy hodisani san'atkorona o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladigan mazmuniy maydon deb ta'riflagan, A.A. Potebnya esa uni badiiy asarning tashqi materiali, ya'ni yozuvchining tasvirlash uchun tanlagan hayotiy manbai sifatida izohlagan. Zamonaviy nazariyalarda mavzu asarning nimaga oidligini belgilaydi, ya'ni voqealar, shaxslar, tarixiy davr yoki ijtimoiy muammolar asosiy manba bo'lishi mumkin. Mavzuning xususiyatlari shaxsiy qatlamda ham yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki bunday mavzular inson qalbi, muhabbat, iztirob va orzularni yoritishga xizmat qiladi. Adabiyotshunoslikda g'oya tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Vissarion Belinskiy "g'oyani adabiyotning yuragi" deb atab, badiiy asarda muallifning xalq hayotiga, ijtimoiy muammolarga bo'lgan munosabati aynan g'oya orqali ifodalanishini ta'kidlagan. Aleksandr Potebnya esa g'oyani so'zning ichki shakli, uning ramziy ma'nosi bilan bog'lab izohlagan. Zamonaviy nazariyalarda g'oya yozuvchining hayotiy voqelikni qanday talqin qilgani, qanday qadriyatlarni ilgari surgani, qaysi estetik tamoyillarga amal qilgani bilan belgilanadi. Shu tariqa g'oya badiiy asarning falsafiy qatlamini tashkil etib, uni oddiy hayotiy voqelik tasviridan san'at darajasiga ko'taradi.

Badiiy asar bu- insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy- ruhiy faoliyatidir. Yozuvchi asar yozar ekan shu asari ichida o'zi yashaydi. Badiiy asar yaratishda uning kompozitsiyasi, mavzusi, g'oyasi yetakchi o'rinda turadi. Endi badiiy asarning g'oyasi va mavzusi haqida batafsil to'xtalamiz. Shakl va mazmun komponentlari ichidan mavzu va g'oya mazmunga kiradi. Mavzu va g'oya bir- biridan ayri holda bo'lmaydi. Chunki mavzu g'oyaviy jihatdan aniqlangan, g'oya esa mavzu rivoji natijasida ochilgan bo'ladi. Mavzu yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "narsa- buyum" degan ma'noni bildiradi. Biroq badiiy asar mavzusi unda qalamga olingan voqea yoki narsa- buyumlar emas. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir. Mavzu asarda berib o'tilgan hayotiy materiallardan iborat bo'ladi. Demak, mavzu bu asarda ifodalanayotgan hayotiy voqeliklar

hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mavzu asarning mazmuniga qarab tanlanadi. Yozuvchi badiiy asar yozish uchun avvalo mavzu tanlaydi. Mavzuni qanday tanlash har bir ijodkorning o'ziga bog'liq. Nega deganda, ba'zi ijodkorlar katta mavzu tanlashadi, lekin uni to'laqonli yoritib bera olishmaydi. Ba'zi ijodkorlar kichik mavzu tanlashsa ham, uni chiroyli qilib yetkazib bera olishadi. Har qanday asarning mavzusi uning g'oyasi asosida ochiladi. G'oya bu inson tafakkurida paydo bo'ladigan, odamlarni maqsadlari sari yetaklaydigan

O'tmishdan ertaklar" asarini olsak. Yozuvchi nega aynan bu asariga shu nomni tanladi. Asarda qanday mavzuda so'z borgan, qanday g'oya yashiringanini bilish o'quvchi uchun jumboqdek beriladi. O'quvchi asarni o'qib borar ekan bu jumboqlarga o'z bilim salohiyatiga qarab javob topadi. "O'tmishdan ertaklar" asari Abdulla Qahhorning hayoti haqida yozilgan asar hisoblanadi. Ushbu asarda o'sha davrdagi siyosiy tizim yorqin namoyon etilgan. Shu bilan birga urush davridagi qiyinchiliklar, ish yo'qligi, sarson-sargardonlikda qolgan aholi tasvirini ham ko'rishimiz mumkin. Bu asarning g'oyasi urush paytlaridagi insonlar hayoti, turmush tarzini o'quvchiga yetkazish. Odamlar bir burda non uchun ertalabdan kechgacha ishlashgani, qizlar o'zi xohlamasada ota-onasining qistovi bilan turmushga chiqishlari bularning barchasini o'quvchiga singdirish uchun yozilgan. Ya'ni asosiy g'oya urush qoralangan. Biz shunday yaxshi kunlarda yashayotganimizga shukr qilishimiz singdirilgan. Har qanday asarni to'liq o'qib chiqsak, biz uning g'oyasini, nega aynan shu mavzu tanlanganini sezamiz. Mavzuni qay darajada ochib berish har bir yozuvchining qalamining o'tkirligiga bog'liq. Hajmi katta asarlarda umumiy bir mavzu doirasidan tashqari boshqa mavzular ham yoritiladi. Masalan, Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasini olishimiz mumkin. Bu asar ham hajman, ham mavzu ko'lami keng asar hisoblanadi. Bu asarni o'qish jarayonida ko'p bilimga ega bo'lish mumkin. Badiiy asarning qimmati g'oyaning haqqoniyligi chuqurligiga bog'liq. Shunga ko'ra g'oya ob'ektiv, subektiv, haqiqiy va soxta bo'ladi. Soxta g'oya asar qimmatini tushiradi, uni halok qilib, g'oyasiz qilib qo'yadi. Masalan, shunday asarlar borki, asarda umumiy qilib olingan g'oya birdan yo'qoladi. Arzimagan sabablaqr orqali bunday holat yuzaga kelishi soxta g'oya deyiladi. Masalan, M. Boboyevning "Rano" qissasini olishimiz mumkin. Ushbu qissada ikki sevishganlarning hayoti keltirilgan. Ikki sevishgan qiz va yigit ota-onasi ruhsat

bermagani uchun bir-biridan ayrilib ketadi. Barcha orzu, maqsadlaridan voz kechadi. Muallif bu bilan ota-ona orzusi uchun barcha narsadan voz kechgan insonlar haqida aytmoqchi bo'ladi. Ammo, oxirida baribir orzulari amalga oshmas ekan sevishib nima qilar edilar degan g'oya paydo bo'ladi. Bu qissaning g'oyasi soxta ekanligini ko'rsatib turibdi. Yozuvchi voqealarni haqqoniy tasvirlashi mumkin ammo, uning o'z dunyoqarashidagi cheklanganlik mantiqiy xulosaga to'g'ri kelmasa bu sub'ektiv g'oya ya'ni niyat deb ataladi. Bunda asosan asar yozuvchining xohishiga ko'ra davom etadi. Obyektiv g'oyada esa muallif xohishidan tashqari o'z-o'zidan to'g'ri xulosa kelib chiqadi. Asarning asl qiymati ana shu bilan o'lchanadi. Dobrolyubov shunday degan: "Muallifning nima demoqchiligi emas, nima degani muhim". Ba'zan sub'ektiv va obyektiv g'oyalar qarama-qarshi kelishi mumkin. Bunda yozuvchi xohishi bilan birgalikda o'z-o'zidan kelib chiqqan g'oya keladi. Ikkalasi bir-biriga mos tushmay qolishi mumkin. Ana shundan soxta g'oya kelib chiqadi. Yozuvchi asar yozar ekan har tomonlama mukammal o'ylashi, asarini barcha sevib o'qishi uchun tinmay harakat qilishi kerak. Mavzu va g'oyani to'g'ri tanlay bilishi kerak. Kitobxon asarning nomini o'qishi bilan unga qiziqsa, demak yozuvchi o'z ishini uddalagan hisoblanadi. Asarda tanlangan nom ham ko'p narsaga bog'liqdir. Masalan, Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasini olsak. Hajmi jihatdan juda kichik, ammo ma'nosi, mazmuni yirik asarlarga teng deb o'ylayman. Oddiy, urishqoq bir bolaning vatanga muhabbatini shunchalar chiroyli tasvirlaganki, hayron qolasan kishi. Huddi shu hikoya meni yig'latgan birinchi hikoya bo'ladi. Manimcha bu hikoyani o'qib yig'lamagan odamning o'zi bo'lmasligi kerak. Mana shu hikoyada mavzu va g'oya uyg'unlashib kelganini ko'rishimiz mumkin. Hikoyani boshidan ozgina o'qiganimdan uni o'qishga qiziqib qolganman. Shunda insonlarning vatanga bo'lgan muhabbatini ko'rganman. Shunday ekan mavzu va g'oya asarning eng muhim unsurlaridan biri ekanligini unutmasligimiz kerak.

Badiiy asar o'zining mazmuniy tuzilishi va estetik ta'siri bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Asarning ichki mohiyatini belgilovchi eng muhim unsurlar — mavzu va g'oya hisoblanadi. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, asarning mazmunini ochishda markaziy rol o'ynaydi. Mavzu tushunchasi—Mavzu — bu badiiy asarda tasvirlanayotgan hayotiy voqelik, hodisa yoki muammo. U yozuvchi kuzatgan va ijodiy qayta ishlagan hayot

manzaralaridan tashkil topadi. Har bir asar aniq bir mavzuga ega bo‘lib, shu mavzu atrofida syujet, obrazlar va voqealar tizimi shakllanadi. Mavzu odatda jamiyat hayoti, insonning ruhiy kechinmalari, muhabbat, ezgulik-yovuzlik kurashi, tarixiy jarayonlar yoki ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi. G‘oya tushunchasi G‘oya — yozuvchining asarda ilgari surmoqchi bo‘lgan asosiy fikri, badiiy niyati va maqsadi. Bu asarning ichki mazmuni, muallifning hayotga munosabati, qadriyatlari va o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan xulosasidir. G‘oya mavzudan kelib chiqadi, lekin mavzudan farqli ravishda muallifning subyektiv bahosini aks ettiradi. G‘oya o‘quvchini o‘ylantiradi, tarbiyalaydi va unda muayyan ruhiy-estetik ta’sir uyg‘otadi. Mavzu va g‘oyaning o‘ziga xos xususiyatlari Mavzu asarda tasvirlangan hayotiy asosni belgilaydi; g‘oya esa shu asos orqali muallifning fikrini ifodalaydi. Mavzu ko‘proq voqeiylikka tayanadi, g‘oya esa muallifning ma’naviy pozitsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mavzu ko‘p hollarda ko‘zga ko‘rinadigan tasvirlarda bo‘lsa, g‘oya asosiy ma’no va xulosalarda yashiringan bo‘ladi. Yaxshi badiiy asarda mavzu va g‘oya bir-biri bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi: mavzusiz g‘oya yoki g‘oyasiz mavzu bo‘lmaydi. Asardagi obrazlar, syujet, konflikt va badiiy vositalar aynan g‘oyani ochishga xizmat qiladi.

Xulosa: Badiiy asarda mavzu va g‘oya asarning mazmuniy va ma’naviy asosini tashkil etadi. Mavzu hayotiy voqealar tizimini belgilasa, g‘oya muallifning shu voqealarga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Shuning uchun ham asarni tahlil qilishda avvalo uning mavzusi va g‘oyasini aniqlash juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyotshunoslik asoslari. K. Quramboyev. Nukus-2011.
2. Adabiyotshunoslik . G. Xalliyeva. Toshkent-2017
3. Adabiyot o‘qitishning ilmiy- nazariy asoslari. Yo‘ldoshev Q. T.: “O‘qituvchi”, 1996
4. Arxiv. Uz
5. Xurshid Davron kutubxonasi
6. Oefen. Uz